

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA MEHNATGA
LAYOQATSIZ VA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING IJTIMOIIY
HUQUQLARI KAFOLATLARI**

Jandullayeva Go‘zal Niyetullayevna

Qoraqolpoq davlat universiteti Yuridik fakulteti

2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola materialida mamlakatimizda inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishida, shaxslarning huquq va erkinliklarini kafolatlashda, qonunchilik tizimini modernizatsiyalashda Konstitutsiyamizning tutgan o‘rni, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mehnatga layoqatsiz va nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy huquqlari kafolatlanishi, ularning huquq, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng va to‘laqonli huquqli tarzda ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan bog‘liq fikr-mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiya, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy huquqlar, teng huquqlilik, tanlash erkinligi, jamoat birlashmalari, ishga joylashtirish, tibbiyot, ta’lim.*

Аннотация: *На материале данной дипломной работы Конституция Республики Узбекистан гарантирует социальные права инвалидов, защищает их права, свободы, законные интересы, предоставляет инвалидам равные и полные права с другими гражданами в жизни общества и замечания государства, связанные с созданием благоприятных условий для участия.*

Ключевые слова: *Конституция, инвалиды, социальные права, равноправие, свобода выбора, общественные объединения, занятость, медицина*

Annotation: *This thesis material contains comments on the guarantees of social rights of disabled and disabled persons in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the protection of their rights, freedoms, legitimate interests, and the creation of favorable conditions for disabled persons to participate in society and state life on an equal and full basis with other citizens.*

Keywords: *Constitution, disabled persons, social rights, equality, freedom of choice, public associations, employment, medicine.*

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-

huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Mustaqil davlatchiligimizning qonuniy timsoli bo'lmish Konstitutsiyamiz, avvalo, millatning yuzi, xalqimiz qat'iy irodasining ifodasi, jamiyatimizning farovon taraqqiyotining huquqiy poydevoridir. Yangi hayot, adolatli demokratik tuzumni rivojlantirish maqsadida o'zgartirish kiritilgan Konstitutsiyamizning g'oyasi, ma'no-mazmuni, asosiy prinsipi va qoidalari umume'tirof etilgan xalqaro huquq mezon-talablari hamda xalqimizning asrlar mobaynida shakllanib, sayqal topgan ma'naviy, axloqiy-huquqiy qadriyatlarini ham o'zida mujassam etgan. Konstitutsiyamizning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" deb belgilanishining asosiy hususiyati shundaki, davlatimiz inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashni hamda "Inson qadri uchun" g'oyasini ilgari surgan holda, har bir fuqaro o'z huquqlaridan to'la qoniq foydalanishi, har sohada insonning qadri ustun turishini anglatadi. Shuningdek Konstitutsiyamizda har bir shaxs qonun oldida tengligi, huquq va erkinliklari daxlsizligi, har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga egaligi hamda o'z mol-mulkiga egalik qilishi, uni tasarruf etishi, adolatli ish haqiga ega bo'lishi, dam olish huquqining mavjudligi, uy-joyli bo'lishi, tibbiy xizmatdan foydalanishi kabi xalqaro andoza va standartlarga javob bera oladigan asosiy normalarning kiritilishi ham katta ahamiyatga molik. Xususan, konstitutsiyamizda mehnatga layoqatsiz va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi hamda ularning davlat va jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng huquqli tarzda ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq normalarning kiritilishi katta ahamiyat kasb etdi. Konstitutsiyaga rioya qiluvchi yoki bo'lmasa o'z huquq va erkinliklarini, manfaatlarini muxofazalash maqsadida unga murojaat etuvchi fuqarolarning Konstitutsiya normalaridan foydalanishlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini huquqiy jihatdan kafolatlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga molik. Konstitutsiyamizning "Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari" deb nomlangan 10-bobi 57-moddasida "Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi, davlat ehtiyojmand toifalarning turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'la qoniqlik ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'la qoniqlik foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi" borasidagi normalarni o'z ichiga oladi. Davlatimiz tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning prinsiplari ishlab chiqilgan

bo'lib, nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish, ularni kamsitishga yo'l qo'ymaslik, obyekt va xizmatlarning qulayligi, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat va jamiyat hayotiga jalb etish, ularni jamiyatning asosiy bo'g'inidan ajratmagan holda teng huquqliligini ta'minlash bosh maqsad sifatida belgilangan. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini har tomonlama himoya qilish, jamoat birlashmalarini rivojlantirish, mehnatga layoqatsiz va nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish hamda ta'lim olishiga ko'maklashish, ularga zarur bo'lgan axborotlarni hechqanday to'sqinliksiz olish imkoniyatlarini yaratish ko'zda tutilgan. Undan tashqari davlatimiz tomonidan nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarga moddiy, maslahatga oid va boshqacha tarzda yordam berish va ularni qo'llab-quvvatlash kabi hamda nogironligi bo'lgan shaxslarga uy-joyni taqsimlashda, ularning ish joyiga, tibbiyot va rehabilitatsiya muassasalariga yaqin bo'lgan hududlardan uy-joy berish va ular elektron onlayn-auksionlar vositasida yer uchastkalarini sotib olish, nogironligi bo'lgan shaxslarning sport bilan shug'ullanishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun boshqalar bilan teng ravishda odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, uy-joy qurilishi bo'yicha davlat dasturlari va maxsus dasturlar doirasida imtiyozli shartlar asosida uy-joy va imtiyozli ipoteka krediti olish, nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash, shuningdek mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida: nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbiy rehabilitatsiya qilish, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning mos keladigan ishga kirishini, saqlab qolinishini va xizmatda (ishda) lavozim bo'yicha ko'tarilishini ta'minlash imkoniyatlarini yaratish kabi ijtimoiy normalarning mustahkam belgilanishi jamiyatda inson qadri va nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan qaratilayotgan e'tibor qanchalik yuqori ekanligiga hech shubha qoldirmaydi. Bunday normalarning bosh qomusimizda mustahkam belgilab qo'yilishidan ham ko'rinadiki, bosh maqsad "Inson qadri uchun" g'oyasini kundalik amaliyotimizda bosh qadriyatga aylantirish yo'lida, ya'ni har bir shaxsning huquqlari himoyasini kafolatlash, nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatda boshqa bo'g'inlardan ajratmaslik va ularga jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashish, umuman olganda barcha sohalarida inson qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi bundan buyon birinchi o'rinda turishini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin." Inson huquqlari" kategoriyasi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanib, Asosiy qonunimizning muqaddimasidayoq o'z tasdig'ini topgan. Konstitutsiyamizning shaxs huquqiy maqomiga oid asosiy hususiyati shundaki, u barcha huquq va erkinliklar sohibi sifatida har bir konkret insonni, har bir shaxsni tan oladi va uni himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlari g'oyalariga sadoqat, xozirgi va kelajak avlod oldidagi yuksak mas'uliyatni anglash, tarixiy tajribalarga tayanish, adolatli jamiyatni

rivojlantirish, qonuniyligni ta'minlash, mamlakat fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, shuningdek fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatlikni kafolatlash kabi oliyjanob maqsadlarni o'zida mujassam etadi. Inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy himoya tizimini barqarorlashtirish, adolat va qonun oldida tenglikni kafolatlash, ta'lim va sog'liqni saqlash huquqini mustahkamlash va iqtisodiy erkinlik bilan birgalikda tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash. Inson huquqlari, va sha'ni masalalarida Konstitutsiyada shaxsning manfaatlarini himoya qiluvchi yangi kafolatlar kuchaytirildi. Bu davlat va shaxs o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, chunki davlatning asosiy maqsadi endi fuqarolarning xavfsizligi va farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ijtimoiy himoya va adolat prinsiplari kuchaytirilib, har bir fuqaroning asosiy ehtiyojlarini ta'minlash majburiyati yanada aniq belgilandi. Bu davlat va shaxs o'rtasidagi o'zaro manfaatlarni uyg'unlashtiradi, chunki ijtimoiy himoya kuchaysa shaxs o'zini xavfsiz his qiladi. Har bir fuqaroning sog'lom atrof muhitida yashash huquqi Konstitutsiyada aniq belgilangan. Bu jihat davlatni ekologik xavfsizligini ta'minlashga majbur qiladi, bu esa nafaqat shaxs, balki butun jamiyat manfaatiga xizmat qiladi. Davlat va shaxsning uzoq muddatli manfaatlari uyg'unlashadi, chunki ekologik barqarorlik sog'lom avlod tabiatini saqlash uchun zarur. Ta'lim olish huquqi va davlatning fanni rivojlantirish bo'yicha majburiyatlari kengaytirildi. Bu esa har bir shaxsga o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshirishda yordam beradi va davlatning ma'naviy, intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Ya'ni ta'lim orqali shaxs va davlat manfaatlari mustahkamlanadi. Prezident va boshqa ijro hokimiyati vakolatlarining chegaralarni aniqlash orqali davlat boshqaruvi tizimining shaffofligi va fuqarolar oldidagi mas'uliyatini oshiradi. Yuqoridagi o'zgartirishlar davlat va shaxs o'rtasida ijtimoiy shartnoma sifatida qaralishi mumkin, unda davlatning asosiy vazifalari fuqarolar manfaatlarini himoya qilish va ularning farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu har bir fuqaroning manfaati uchun, balki davlatning barqaror rivojlanishi va jamiyat farovonligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs va davlatning birgalikdagi rivoji O'zbekistonning demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat sifatidagi nufuzini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (30.04.2023)

2. O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 7-noyabrda 188-sonli "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Prezident farmoni.

3.O‘zbekiston Respublikasi 2023-yildagi 8-maydagi 67-sonli “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident farmoni

4.O‘zbekiston Respublikasi 2022-yil 17-mart 89-sonli “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati amaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘risida”gi Prezident farmoni.

5.Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining qonuni.

6. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning yer uchastkasini sotib olish xarajatlarini qoplash tartib-taomillarini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

Qarori

7.Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash,Ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtiloiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 21.12.2021 y. N PQ-57

8.Khamidova, M. A., & Orifkhonova, N. O. (2024). THE IMPORTANCE OF MICRO AND MACROELEMENTS IN MICROCLONAL PROPAGATION OF POTATOES. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 195-197.

9.Samiyeva, G. (2024). Ijtimoiy sohada maqsadli jamg ‘armalar va ijtimoiy fondlar faoliyatini takomillashtirishning xorij tajribasi. THE INNOVATION ECONOMY, 2(02).

10.Самиева, Г. Т. (2024). Анализ Бытового Обслуживания В Республике Узбекистан. Miasto Przyszłości, 51, 167-171.

11.Самиева, Г. Т. (2024). РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ СЛУЖИТ ПОВЫШЕНИЮ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ. Экономика и социум, (5-1 (120)), 1597-1600.

12.Fayziyeva, S., Samiyeva, G., & Yuldosheva, S. (2024). Possibilities of using economic mechanisms when organizing fruit and vegetable cooperatives. In E3S Web of Conferences (Vol. 539, p. 02024). EDP Sciences.

13.Samiyeva, G. (2023). AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI. THE INNOVATION ECONOMY, 1(03).

Samiyeva, G. T. (2023). IJTIMOY FONDLAR VA MAQSADLI JAMG ‘ARMALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.

14.Samiyeva, G. (2023). O ‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH ISTIQBOLLARI. THE INNOVATION ECONOMY, 1(02), 35-49.

15.Rasulovna, N. Z. (2024). Some Aspects of Organizing and Improving Students' Oral Speech at Non-Language Faculties. Miasto Przyszłości, 49, 373-375.

16.Nazirova, Z. (2023). METHODS OF MEASUREMENT OF CORNEA DIAMETER IN CHILDREN. Science and innovation, 2(D12), 482-485.

17.Nazirova, Z. (2023). IMPROVING THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE TO VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 218-220.

18.Zilola, N. (2022). XORIJIY TILLARNI O ‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI (RUS TILI MISOLIDA). ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 1(1), 188-192.

19.Nazirova, Z. R. THE MANAGEMENT ALGORITHM OF CHILDREN WITH REFRACTORY GLAUCOMA. Impact Factor: 4.9, 11.

20.Назирова, З. Р. (2021). THE MANAGEMENT ALGORITHM OF CHILDREN WITH REFRACTORY GLAUCOMA. УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ, (SPECIAL 1).

21.Rasulovna, N. Z. (2021, April). APPILICATION OF VIDEO MATERIALS IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF VETERINARY STUDENTS IN THE STUDY OF THE RUSSIAN LANGUAGE. In Archive of Conferences (Vol. 18, No. 1, pp. 37-38).